INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

PRAGMALINGVISTIK YONDASHUVDA NUTQ AKTLARINING ROLI

Samarqand davlat chet tillar instituti
Sharq tillari fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
talabasi Ruziyeva Sabina Baxri qizi

Annotasiya. Zamonaviy tilshunoslikda til nafaqat grammatika va leksika nuqtayi nazaridan, balki uning ishlatilish sharoiti, kommunikativ maqsadi va ijtimoiy kontekstda qanday ta’sir ko‘rsatishi nuqtayi nazaridan ham o‘rganilmoqda. Bu borada pragmalingvistika va nutq aktlari nazariyasi asosiy nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada tilning amaliy qo‘llanilishi, nutq aktlari va ularning pragmatik mazmuni, shuningdek, muloqotda tutgan o‘rni haqida batafsil so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Nutq akti, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, adresant, adresat, pragmatik ta’sir

Til inson hayotining ajralmas bir qismidir. U nafaqat aloqa vositasi, balki fikr almashish, tuyg‘ularni ifodalash va ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish qurolidir. Tilshunoslikning bir yo‘nalishi bo‘lgan pragmalingvistika ana shu muloqot jarayonini chuqur o‘rganadi. U til birliklarining kontekstda qanday ishlatilishini, gapiruvchi va tinglovchi orasidagi ma’no almashinuvi qanday ro‘y berishini tahlil etadi. Ayniqsa, nutq aktlari nazariyasi bu yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, nutq jarayonining faol, ijtimoiy va funksional tomonlarini ochib beradi.

Lisoniy birliklarning aniq va voqeiy muloqot sharoitida qo‘llanishi pragmatik tahlil obyekti sanaladi [6: 116]. Ammo pragmatik ta’sir faqat til birliklari bilan amalga oshmaydi, unda muloqot muhiti, so‘zlovchi va tinglovchining madaniyati, noverbal vositalar ham pragmatik ta’sir etadi. Ayniqsa, nutq vaziyatidagi nutq aktlari so‘zlovchining tinglovchiga o‘tkazadigan pragmatik ta’sirida muhim o‘rin tutadi.

Birgina gap orqali so‘zlovchi nafaqat ma’lumot berish, so‘rash, balki tinglovchini nimadir qilishga undash, ishontirish, va’da berish va shu kabi bir qancha holatlarni ifodalash kabi vazifalarni ham bajaradi. Jumlalar orqali so‘zlovchi adresatga ma’lum axborotni yetkazadi hamda unga pragmatik ta’sir o‘tkazadi. Matnni tahlil qilayotgan shunchaki nutq matni, ulardagi grammatik, leksik, morfologik, fonetik, uslubiy ma’nolar tahlil qilish emas, nutq vaziyati, so‘zlovchi va tinglovchi munosabatlari, ularning qadriyatlari ham muhim omil hisoblanadi.

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

Nutqiy akt nazariyasi deganda, nutq jarayonida rejalashtirilgan kommunikativ faoliyatni tushunamiz. Nutq aktlari tarkibiy tuzilishi jihatidan uchga bo‘linadi;

1.So‘zlovchi (adresant) - xabarni yetkazuvchi shaxs

2. Tinglovchi (adresat)- ma’lumot qabul qiluvchi shaxs

3.Nutqiy vaziyat - muloqot jarayonini amalga oshiruvchi kontekst

J. Ostin nutq aktlarini uch turga ajratadi:

1. Lokutiv akt - Lingvistik jihatdan shakllangan gap

2. Illokutiv akt- bajarilishi bilan bog‘liq harakat, gap orqali ifodalangan maqsad - propozitsiya

3. Perlokutiv akt - adresatga ta’sir natijasi.

Biroq tilshunoslarning barchasi ham ushbu tasnifga qo‘shilmaydilar va nutqiy aktlarni to‘rtga bo'ladi: so‘zlash yoki tallaffuz akti - lokutiv, gap orqali ifodalangan asosiy axborot-propozitsiya yoki propozitsional akt, so‘zlovchining kommunikativ niyati yoki maqsadi-illokutiv akt, gap yoki ifoda orqali tinglovchiga nutqiy ta’sir etish- perlokutiv akt hisoblanadi [3: 77]

Muloqotdan asosiy maqsad bir- birini tushunishdir . “Eshik ochiq” jumlasi predmetning ochiq holda turganini ko‘rsatib, u haqida ma’lumot beradi. Bu gap orqali “chiqishingiz mumkin”, “eshikni yoping”, “tezda chiqib keting” kabi ma’no ifoda etilishi mumkin, albatta, aniq maqsad esa nutq vaziyatida yuzaga keladi, so‘zlovchi maslahat berish, buyruq yoki norozilik bildirishi mumkin. Bu gap har bir vaziyatda tinglovchiga turlicha ta’sir o‘tkazadi.

Pragmalingvistika va nutq aktlari nazariyasi tilshunoslikda muloqotni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuvlar orqali insonlar o‘rtasidagi til orqali aloqa jarayoni nafaqat til birliklari orqali, balki ijtimoiy rol, kontekst, niyat va ta’sir doirasida o‘rganiladi. Bugungi kunda ushbu nazariyalar til o‘rganishda, tarjimada, til o‘rgatishda, madaniyatlararo muloqotda va hatto sun’iy intellekt tizimlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Harvard University Press

2. Azimova Sayyora. Nutq aktlari va komunikativ kompotensiya: Rad javobini bildiruvchi illokatsion harakatni progmatik tahlil qilish. Maqola So‘z san’ati xalqaro jurnali 6 - son 3- jild Toshkent 2020 .

3. Doroshenko A.V. Incentive speech acts in indirect contexts.// In the book: Logical analysis of language. - M., 1989. p. 77.

4. Hakimov M. K. O‘zbek tilida vaqt ma’noli lug‘aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. Farg‘ona, 2004.

5. Mamajonov A. Abdupattoev M. Matn sintaksisi. Farg'ona, 2002.

6. Safarov Sh. Pragmalingvistika.Monografiya. Toshkent-2008

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

7.Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press.
8.Qo‘ng‘urov R. Begmatov E. Tojiyev Y. Nutq madaniyati uslubiyat asoslari. Toshkent, 1992.